

## INGLIZ TILI FANI O'QITUVCHILARIDA SOTSIAL INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK USULLARI

*Iskandarov Oybek Xayrullayevich*

*Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti magistri*

**Annotatsiya:** Bugungi kunda jamiyatda insonning ma'naviyat bilan sug'orilgan intellektual xususiyatlari har qachongidanda ko'proq qadrlana boshlandi. Bu xususiyat o'z navbatida insondan jamiyat rivojiga hissa qo'shadigan yaratuvchanlikdir.

**Kalit so'zlar:** Intellektual, ma'naviyat, jamiyat, idrok etish, sotsial intellekt, ijtimoiy subyekt,

Insonning-inson tomonidan idrok etilishi ko'p jihatdan sotsial intellekti darajasiga bog'liqdir. Ijtimoiy munosabatlarning tarkibiy qismida shaxsning guruhga, jamiyatga ijtimoiy adaptatsiyasi uning sotsial intellektiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Individual intellekt ijod etadi, yaratadi, sotsial intellekt yaratilgan ma'naviy qadriyatni ko'paytiradi, tarqatadi, ishlab chiqaradi va hayotga tatbiq etadi, ijtimoiy boshqarish va nazorat qilish ishlarini amalga oshiradi. Bularni intellektni o'zi qilmaydi, balki intellektga ega bo'lgan inson va guruhlar amalga oshiradi. Ijtimoiy intellekt aslida ijtimoiy subyektini hislatidir.

Intellektlar majmuasi ma'lum ijtimoiy tabaqalardan hosil bo'ladi: olimlar, ijodkorlar, muxandislar, boshqaruvchilar va boshqalar. Bular noosferani ijodkor qatlamini tashkil qiladi. Sotsial intellektni ifoda qilish uchun oxirgi vaqtlarda "ijtimoiy kognitologiya" tushunchasidan keng foydalanilmoqdalar.

Intellekt muommasi qadim zamonlardan buyon mashhur olimlarning tadqiqot ob'ekti bo'lib kelgan va hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ijtimoiy taraqqiyotning o'rta asrlariga kelib, intellekt terminining mazmuni yanada boyidi. Aqliy taraqqiyot masalasi uchun N.S.Leytes tadqiqoti alohida ahamiyatga ega. U aql sifatlarini o'z ichiga qamrab oluvchi umumiy aqliy qobiliyatlar bilan bir qatorda sotsial va emotsional qobiliyatlari odamning nazariy bilmi va amaliy faoliyatidagi imkoniyatlarini tavsiflab beruvchi omil deb ta'kidlaydi. Tevarak – atrofni qurshab olgan borliqdagi narsa va hodisalar o'rtasidagi ichki bo'lanish va munosabatlarni aks ettirish hamda voqelikni ijodiy ravishda qayta o'zgartirish imkoni odam aqli uchun asosiy omil hisboblanadi.

Ingliz tili o'qituvchilarida sotsial intellektni rivojlantirishda, o'qituvchilardan psixologik yondashishlarini talab etadi. Chunki o'rganuvchilarning aqliy faoliyatida hamda bilish darajasida bir-biridan farq qiladigan jihatlarni ko'rish mumkin, bu esa o'qituvchidan psixologik qarash orqali bolaga intellekt ya'ni rivojlanayotgan ta'lim tizimini keng ko'lamda olib borishini va sifatli bilim berish kerakligini talab etadi.

Shunday ekan o'qituvchi zamonaviy texnologiyalardan foydalanib har jihatlarni hisobga olgan holda dars o'tishlari kerakligini bildiradi. Shunday ekan bizga berilgan aqlimizni ma'niyatimizni boyitishimizga sarflamog'imiz lozim.

Bugungi globallashuv jarayonida informatsiya oqimining haddan ortib borishi, urbanizatsiya jarayonining toboro jadallashishi, integratsiyaning kuchayib borishi har bir insondan mavjud sharoitlarga moslashishda ruhiy egiluvchanlikni talab etadi ya'ni o'rgatuvchi o'rganuvchini har qanday yo'llar orqali ilm olishida o'ziga qaratmog'i va o'zidagi bor bilimni berishi lozim. O'qituvchi psixalogik pozitsiyani ham aynan shu jarayon bilan muvofiqlashtiradi. Bunda shaxs intellektning rivojlanish darajasi, uning aqliy imkoniyatlari, regulyatori, ahloqiy jihatlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda jamiyatda insonning ma'naviyat bilan sug'orilgan intellektual xususiyatlari har qachongidanda ko'proq qadrlana boshlandi. Bu xususiyat o'z navbatida insondan jamiyat rivojiga qo'shadigan yaratuvchanlikdir.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ingliz tili fani o'qituvchilari balki, har bir o'rgatuvchi shaxslar uchun sotsial intellektni rivojlantirgan holda o'quvchilarga ilm berish kerakligini ko'rsatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Trotsin. M. Ta'lim sotsiologiyasi // Amerika sotsiologiyasi M.2001
2. Koen J. Sotsiologik nazariyaning tuzilishi M. 2002-yil
3. Leymanigin.I.I. Fan ijtimoiy institut sifatida